

VIII. DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, Qorao'zak tumanida 2021 yilning 1 oktabr holatiga doimiy aholi soni 53,4 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 0,1 ming kishiga yoki 100,2 foizga ko'paydi.

Doimiy aholi soni

(2021 yil 1 oktabr holatiga, ming kishi)

	Jami aholi soni	Jami aholi sonidan:	
		Shahar aholisi	Qishloq aholisi
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1939,5	949,8	989,7
Qorao'zak tumani	53,4	16,2	37,2
Ulushi, %	2,8	1,7	3,8

Shahar va qishloq aholisi tarkibi (foizda)



Shuningdek, 2021 yilning 1 oktabr holatiga Qorao'zak tumanida 51,2 % erkaklar va 48,8 % ayollar tashkil etgan. Demak, Qorao'zak tumanida erkaklar soni ayollar soniga nisbatan ko'proq ekanligini kuzatishimiz mumkin.

Yanvar-sentabr oylarida aholining tabiiy harakati

	Kishi		o'sish, kamayish	har 1000 aholiga, nisbatan	
	2020 y.	2021 y.		2020y.	2021y.

	<i>Kishi</i>		<i>o'sish, kamayish</i>	<i>har 1000 aholiga, nisbatan</i>	
	<i>2020 y.</i>	<i>2021 y.</i>		<i>2020y.</i>	<i>2021y.</i>
Tug'ilganlar	746	728	-18	18,8	18,2
O'lganlar	187	196	9	4,7	4,9
<i>shu jumladan</i>					
1 yoshgacha bolalar o'limi*	11	7	-4	14,8	13,1
Tabiiy o'sish	559	532	-27	14,1	13,3
Nikohlar	214	259	45	5,4	6,5
Ajralishlar	16	18	2	0,4	0,5


Tug'ilish darajasi. 2021 yilning yanvar-sentabr holatiga Qorao'zak tumanida tug'ilganlar soni 728 kishini tashkil qildi va 2020 yilning shu davriga (746 kishi) nisbatan 18 taga kamaydi. Tug'ilish koeffitsienti mos ravishda 18,2 promilleni tashkil qildi va 2020 yilning shu davriga (18,8 promille) nisbatan 0,6 promillega kamaydi.

Tug'ilish darajasining Qorao'zak tumanida (18,8 dan 18,2 promille)ga kamayganligi kuzatildi.

O'lim darajasi. 2021 yilning yanvar-sentabr holatiga Qorao'zak tumanida o'lganlar soni 196 kishini tashkil qildi va 2020 yilning shu davriga (187 kishi) nisbatan 9 taga o'limlar soni ko'paydi. Mos ravishda o'lim koeffitsienti 4,9 promilleni tashkil qildi (2020 yil yanvar-sentabrida 4,7 promille).


Tabiiy o'sish. Yuqoridagi jadvaldan shuni kuzatishimiz mumkinki 2021 yilning yanvar-sentabr holatiga Qorao'zak tumanida 532 kishini tashkil qildi va 2020 yilning shu davriga (559 kishi) nisbatan 27 taga kamayganligini kuzatishimiz mumkin.

**Yanvar-sentabr oylarida tug'ilganlar, o'lganlar, tabiiy o'sish
nikoh va ajralishlar koeffitsiyenti**



Nikoh va ajralishlar. 2021 yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYo organlarida 259 ta nikohlar va 18 ta ajralishlar ro'yxatga olindi. Ming aholiga nisbatan 6,5 ta nikoh (2020 yilning tegishli davrida 5,4 ta) va 0,5 ta ajralishlar (2020 yilning tegishli davrida 0,4 ta) to'g'ri keladi.

Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti



Yanvar-sentabr oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari


(kishi)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosi	
	2020 y.	2021 y.	2020 y.	2021 y.	2020 y.	2021 y.
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5 263	9 610	8 303	16 184	-3 040	-6 574
Qorao'zak tumani	185	133	369	563	-184	-430
Qoraqalpog'iston Respublikasidagi ulushi, %	3,5	1,4	4,4	3,5	x	x

Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021 yilning yanvar-sentabr oylarida tuman bo'yicha ko'chib kelganlar soni 133 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 563 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i minus 430 kishiga (2020 yilning shu davrida minus 184 kishi) teng bo'ldi.

Yanvar-sentabr oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari

(kishi)



**IX . O‘RTACHA OYLIK NOMINAL
HISOBLANGAN ISH HAQI**

**2021 yil yanvar-sentabr oyi uchun o‘rtacha nominal
hisoblangan ish haqi**
(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

ming so‘m

	<i>sentabr</i>	<i>yanvar-sentabr</i>
Jami	2179,4	1920,7
Sanoat	2702,0	2546,4
Axborot va aloqa	3490,6	3070,3
Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik	4262,4	4224,9
Ta‘lim	1963,4	1634,8
Sog‘liqni saqlash va ijt. xizmat ko‘rsatish	2245,7	2139,7
Boshqa faoliyat turlari	2486,8	2257,0

2021 yilning yanvar-sentabr oylarida Qorao‘zak tumanida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1920,7 ming so‘mni tashkil etdi.

Bunda ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud.